

ELEKTRON LUG‘ATLARNING PAYDO BO‘LISHI VA ULARGA UMUMIY TAVSIF

Murodillayeva Zohida Ikromjon qizi

ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

[zohidamurodillayeva.@gmail.com](mailto:zohidamurodillayeva@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron lug‘atlarning tadrijiy rivojlanib borishi:ibtidosidan to bugungi kungacha qanday ko‘rinishlarda mavjud bo‘lganligi xususida hamda ularning turlari xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari bayon qilib berilgan.

Аннотация: В этой статье описывается процесс развития электронных словарей:от зарождения до сегодняшнего дня, в каких формах они существуют, а также их видовые особенности, преимущества и недостатки.

Annotation: This article describes the evolutionary development of electron dictionaries:in what manifestations it existed from the beginning to the present day, as well as the characteristics, advantages and disadvantages of their types.

Kalit so‘zlar: Elektron lug‘atlar, kompyuter leksikografiyasi, Collins COBUILD, afzalliklar, online lug‘atlar, qog‘oz lug‘atlar.

Ключевые слова: Электронные словари, компьютерная лексикография, Collins COBUILD, предпочтения, онлайн-словари, бумажные словари.

Key words: Electronic dictionaries, computer lexicography, Collins COBUILD, advantages, online dictionaries, paper dictionaries.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq

yuqori malakali kadrlar tayorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifalardan etib belgilandi. Buning ijrosi sifatida esa ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga yanada ko'proq e'tibor qaratildi. O'quv dasturlarini, qo'llanmalarni elektronlashtirish, kompyuterlashtirish yanada jadallashdi. Shu xususda, kompyuter lingvistikasi paydo bo'ldi, uning bir yo'nalishi sifatida esa kompyuter leksikografiyasi vujudga keldi. Kompyuter leksikografiyasi- amaliy tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda lingvistik va dasturiy ta'minot asosida ishlaydigan, kodlash va dekodlash prinsipi asosida yaratilgan kompyuter lug'atlari, ularni tuzish dasturlari va lagoritmlarini o'rganiladi¹ Kompyuter leksikografiyasining vujudga kelishi lug'at tuzish ishlarini yanada osonlashtirdi. Kompyuter leksikografiyasining paydo bo'lishi 1940-yillarning 2-yarmiga to'g'ri kelishi aytiladi va birinchi eksperiment sifatida R.Buzining ishi ko'rsatiladi. Ammo biz bu davrdan electron lug'atlar yaratish boshlangan deb ayta olmaymiz, boisi bu davrda lug'at tayorlashda kompyuterdan foydalanish boshlangan. Kompyuter leksikografiyasining paydo bo'lishi 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshiga to'g'ri keladi. Bu davrda lug'atlar yaratishda kompyuter optimizatsiya(ma'lum bir funksiyaning muqobilini yoki eng yaxshi variantini topish jarayoni²) va avtomatizatsiya(tizim o'zi harakatlanishiga asoslangan, turli operatsiyalar bajarishga yo'naltirilgan va shu tamoyilda ishlashiga moslab programmashtirilgan mexanizmlar yig'indisi³) vazifasini bajargan. Olimlar bundanda qulayroq imkoniyatlarga ega bo'lishni istashgan, lekin o'sha davrda kompyuterlarning quvvati unday imkoniyatlarga ega bo'lmagan. Elektron leksikografiyaning rivojlanishining keyingi bosqichi 1980-yillar oxiri 90-yillarning boshiga to'g'ri keladi, bu davrdagi eng yorqin namuna 1987-yilda yaratilgan Collins COBUILD lug'atidir. Ushbu lug'at bugungi kungacha 10 marta nashr etilgan va har nashrida yanada mukammallashib borgan. Lug'atda 20milliarddan ortiq so'z mavjud.

¹ I.Rahimov. Kompyuter lingvistikasi asoslari.—Toshkent:“Akademnashr”,2011.79-b

² <https://bigenc.ru/c/optimizatsiia-79076e>

³ I.Rahimov. Kompyuter lingvistikasi asoslari.—Toshkent:“Akademnashr”,2011.86-b

Lugʻat Collins va professor John Sinclair boshchiligidagi Birmingham universiteti tomonidan tayyorlangan. Lugʻat english-english lugʻat boʻlib, undan ingliz tilini mukammal oʻrganmoqchi boʻlgan advanced darajasidagi foydalanuvchilar foydalanishadi. Ushbu korpus dunyodagi ingliz tili maʼlumotlar bazasiga ega boʻlgan eng katta lugʻat hisoblanadi⁴. Yuqoridagi barcha lugʻatlar qogʻoz koʻrinishidagi lugʻatlar hisoblanib, olimlarning oldida endi ushbu qogʻoz shaklidagi lugʻatlarni electron shaklga oʻtkazish vazifasi turar edi va bu vazifa uddalandi ham. Oʻsha davrda elektronlashtirilgan ikki xil tipdagi lugʻatlar mavjud edi⁵:

a) CD-ROM va DVD ROM koʻrinishidagi disklar. Ularga maʼlum bir dasturlar yuklangan va ular ulkan bir kitobni olib yurishdek vazifadan insonlarni xalos etgan. Bu lugʻatlarga misol sifatida Oksford va Macmillan lugʻatlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Bundan tashqari esa keyinchalik Speak & Spell tipidagi lugʻatlar paydo boʻldi va keyinchalik ular mobil qurilmalarga oʻzlashtirib olindi.

b) “Choʻntak” lugʻatlari deb atalgan ikkinchi xil lugʻat turi esa foydalanishga qulay boʻlganligi uchun bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Koʻrinishidan telefonni eslatuvchi bu lugʻatda qidiruv funksiyasi mavjud boʻlib, siz izlagan soʻzingizni bimalol topib olishingiz mumkin. Qurilma ikki qismga boʻlingan: ekran qismida izlangan soʻzga oid maʼlumotlar taqdim etilsa, ikkinchi qismida harflar va belgilardan iborat qism mavjud.

2000-yillarga kelib esa electron lugʻatlarning yangi davri boshlandi. Endi shaxsiy kompyuterlarga yuklash imkoniyati mavjud boʻlgan electron lugʻatlar vujudga keldi va bugungi kunda foydalanilayotgan lugʻatlarning asosi paydo boʻldi. Bugungi kunda esa ular rivojlanib juda koʻp afzalliklarga ega boʻlib bormoqda. Bugungi kunda eng koʻp foydalanilayotgan lugʻat turlarining afzallik va kamchiliklarini bayon qilsak. Bugun qogʻoz koʻrinishidagi, electron va online lugʻatlar eng koʻp foydalanuvchilarga ega.

⁴ <https://blog.collinsdictionary.com/the-history-of-cobuild/>

⁵ Маевский Сергей Сергеевич. Особенности создания учебного электронного толкового словаря русского языка.—Минск :2015.10-б.

Ko'pchilik yoshlar tomonidan qog'oz ko'rinishidagi lug'atlar allaqachon chetga surib qo'yilgan, lekin hali hamon katta avlod vakillari lug'atning bu turidan foydalanishadi. Qog'oz ko'rinishidagi lug'atlar o'quvchini yanada bilimdor qiladi, boisi ma'lum bir so'zni qidirish orqali o'quvchi boshqa so'zlarga ham to'xtaladi va natijada maqsad qilingan natijadan yuqoriroq natijaga erishadi. Bugungi kunda internet juda rivojlangan, biroq internet muammoli bo'lgan hududlar ham borligi sir emas. Mana shunday hududlarda hali hamon qog'oz ko'rinishidagi lug'atlarga talab juda yuqori. Bundan tashqari dasturlar tilning barcha xususiyatlarini qamrab ololmaydi, bunday xususiyatlar lug'atning aynan shu turida namoyon bo'ladi. Yaponiyada yaratilgan lug'atlar misol sifatida olinib aytiladiki, hattoki yapon tilidagi ayrim lug'atlarning yaponcha tarjimasi ham mavjud emas, ya'ni ularni dastur tiliga solishning iloji bo'lmagan, bu esa tilning xususiyatini ochib berishda kamchilik va nuqsonlarga olib keladi. Albatta, afzalliklar bilan birga kamchiliklarga ham ega ushbu lug'at turi buni biz qidiruv tizimiga ko'p vaqt ketishi va hajm jihatidan katta lug'atlarni qo'lda olib yurish kerakligi bilan ifodalaymiz. Navbatdagi lug'at elektron lug'at bo'lib, qog'oz ko'rinishidagi lug'atdan har doim ko'tarib yurish imkoniyati mavjudligi va qidiruv funksiyasining tezligi bilan ustun turadi. Biroq yetarli darajada quvvatga ega bo'lmasa undan foydalanib bo'lmasligi uning kamchiligi hisoblanadi. Online lug'atlar esa ancha keng imkoniyatlarga ega. Biz ushbu turda quyidagi 3 xil natijaga erishamiz: a) so'z kiritamiz va uning tarjimasi yoki shu so'z qatnashgan ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin; b) matn kiritamiz va matnda mavjud belgilar asosida shu mazmundagi javob matniga ega bo'lamiz; c) matn kiritamiz va matnning tanlangan tildagi tarjimasiga ega bo'lamiz. Shuncha afzalliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, agar internet mavjud bo'lmasa, undan foydalanishning iloji yo'q va bu lug'atdan foydalanish mablag' talab qiladi, lekin ba'zi qimmat turdagi qog'oz lug'atlardan bir muncha arzonroq hisoblanadi. Elektron lug'atlarning, umuman, har bir ixtironing o'z tarixi va rivojlanish boqsqichi mavjud. Vaqt o'tgan sari ularning kamchiliklari namoyon bo'lib, bartaraf bo'lib boraveradi. Xulosa qilib aytganda, har bir lug'at turning o'ziga xos

afzallik va kamchiliklari mavjud, bu esa yanada mukammal lug‘at yaratishdek vazifani ixtirochi oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.Rahimov. Kompyuter lingvistikasi asoslari.—
Toshkent:“Akademnashr”,2011.79-b
- 2.Маевский Сергей Сергеевич.Особенности создания учебного
электронного толкового словаря русского языка.—Минск :2015.10-б.
- 3.<https://bigenc.ru/c/optimizatsiia-79076e>
- 4.<https://blog.collinsdictionary.com/the-history-of-cobuild/>